

ABADIY TURIZM VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBILLARI

Rustamova Muxlisa Abdumajid qizi

Qo'qon Universiteti Andijon filiali 1-kurs talabasi

rustamova5515@gmail.com

[+998 88 564 55 15]

Annostatsiya: Mazkur ilmiy ishda abadiy turizm tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda globallashuv jarayonlaridagi o'rni keng yoritilgan. Abadiy turizm – madaniy meros, diniy an'analar va tarixiy yodgorliklarga asoslangan turizm sohasi bo'lib, u nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki milliy o'zlikni saqlash va madaniy almashinuv jarayonlarida ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi globallashuv sharoitida turizm sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Turizm sohasining rivojlanishi o'z navbatida turizmga turdosh bo'lgan bir nechta sohalarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, turizm sohasining rivojlanishi ishsizlik muammosini bartaraf etishda yordam beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga tashrif buyurgan har 20 ta turist 1 ta bevosita turizm sohasida va 2 ta turizmga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yangi ishchi o'rinlarining ochilishiga yordam beradi. Dunyoda ish bilan band aholining har o'ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda.

Tadqiqot davomida abadiy turizm obyektlari – qadimiy shaharlar, me'moriy obidalar, ziyoratgohlar, ekologik va tabiiy diqqatga sazovor joylarning turizm sohasidagi ahamiyati o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston va dunyo tajribasi tahlil qilinib, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda investorlarni jalb etish kabi jihatlarni muvofiqlashtirish muvofiqlashtirildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, abadiy turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari belgilandi, jumladan, yangi turistik yo'nalishlarni yaratish, zamonaviy marketing strategiyalarini qo'llash va mahalliy aholini turizm faoliyatiga jalb qilish orqali barqaror rivojlanish strategiyalari ishlab chiqildi. Ishning natijalari ilmiy tadqiqotchilar, turizm sohasi mutaxassislari va davlat organlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida sohaga oid islohotlarni shakllantirishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: abadiy turizm, tarixiy-madaniy meros, turizm salohiyati, arxeologik obidalar, me'moriy yodgorliklar, turistik infratuzilma, madaniy merosni saqlash, turizmni rivojlantirish, xorijiy tajriba, raqamli texnologiyalar, sayyohlik xizmati, turizm siyosati, barqaror turizm, investitsiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, milliy qadriyatlar, xalqaro

hamkorlik. Turizm sohasi, sayyohlar, taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston-2030, qishloq turizm, etno turizm, ziyorat turizm.

Keywords: *eternal tourism, historical and cultural heritage, tourism potential, archaeological monuments, architectural monuments, tourist infrastructure, preservation of cultural heritage, tourism development, foreign experience, digital technologies, tourist service, tourism policy, sustainable tourism, investments, socio-economic development, national values, international cooperation. Tourism sector; tourists, development strategy, Uzbekistan-2030, rural tourism, ethno tourism, pilgrimage tourism.*

Kirish: Bugungi kunda turizm sohasi jahon miqyosida eng tez rivojlanayotgan va iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy meros obidalarini asosida shakllanadigan abadiy turizm turlari sayyohlar e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda. Abadiy turizm — bu insoniyat sivilizatsiyasining o'tmishiga oid nodir yodgorliklarni o'rganish, qadimiy shaharlar va madaniyatlar bilan tanishish orqali turistik tajriba oltirishga asoslangan turizm yo'nalishidir.

O'zbekiston hududida joylashgan ko'plab tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar va me'moriy yodgorliklar abadiy turizm salohiyatini yuksak darajada namoyon etadi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi shaharlar tarixiy-madaniy boyliklarga boy bo'lib, jahon hamjamiyatida alohida e'tirof etilgan. Ushbu sohani rivojlantirish orqali nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyati oshadi, balki milliy qadriyatlarimizning xalqaro miqyosda tanilishi va saqlanishi ta'minlanadi.

Mazkur ishda abadiy turizmning nazariy asoslari, O'zbekistondagi mavjud holati, uni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari va istiqbollari chuqur tahlil qilinadi hamda sohaga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ko'p manbalarda turizm sohasi rivojlanish tarixining ildizlari g'arb davlatlarida boshlangan, deb talqin qilinadi. Ammo, O'zbekistondagi turizm fanining asoschilaridan biri To'xliyev (2021) tomonidan sohani rivojlantirish tarixining ildizlari Markaziy Osiyo davlatlariga borib taqalishi asoslab berilgan, ya'ni turizm qadim zamonlardan boshlab sayyoramiz xalqlari o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Odamlar yangi hududlarni kashf etish, dunyoni ko'rish va bilish, savdo sotiqni rivojlantirish, madaniy va diplomatik aloqalarni o'rnatish maqsadida sayohatga chiqqanlar. Savdo karvonlari yo'llari kesishgan, madaniyatlar va sivilizatsiyalar tutashgan chorrahada joylashgani uchun Markaziy Osiyo mintaqasi bu jarayonda muhim o'rin tutadi.

Turizmning shakllanish jihati xronologik jihatdan tahlil qilinganda, bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda turizm asoschisi sifatida tan olingan Angliyalik Tomas Kukning 1843-yilda dastlabki temir yo'l orqali safarini tashkillashtirgani XIX asrga to'g'ri keladi.

Demak, Markaziy Osiyolik qomusiy olimlarimiz IX-XI asrlarda o'z sayohatlarini amalga oshirish natijasida turizmning ziyorat va ilmiy turlarini shakllantirishda asoschilar bo'lib hisoblanishadi (Eshtaev, 2023).

Asosiy qism: "O'zbekiston-2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha maqsad va vazifalar belgilangan. Jumladan, 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada mehmonlar uchun mo'ljallangan o'rinlar sonini kamida 2 barobar oshirish, turizm mahallalari sonini 175 taga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish belgilangan (Farmon, 2023). Bundan tashqari, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bobi, 35-maqсадida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan bo'lib, bu asosida:

to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish;

turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish;

Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash. 2022-yilda "Abadiy shahar" tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish;

Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish;

Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan. Albatta bu vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator professor olimlar, tadqiqotchilar, turizm eksportlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Abadiy turizm – bu tarixiy-madaniy meros obidalari, qadimiy shaharlar, me'moriy yodgorliklar, arxeologik topilmalar asosida shakllanadigan turizm turi bo'lib, u sayyohlarni o'ziga jalb etish orqali iqtisodiy va madaniy rivojlanishga xizmat qiladi. Bu

turizm yo'nalishi nafaqat o'tmish boyliklarini o'rganishga imkon beradi, balki milliy qadriyatlarimizni saqlash va targ'ib qilish vositasidir.

O'zbekiston hududida abadiy turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Xususan, Samarqanddagi Registon majmuasi, Buxorodagi Ark qal'asi, Xivadagi Ichan qal'a va boshqa ko'plab obidalar UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ularning jahon sayyohlari e'tiborini tortishi tabiiydir. Bu obyektlar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki iqtisodiy foyda manbai hamdir.

Shu bilan birga, abadiy turizmni rivojlantirishda bir qator muammolar ham mavjud, jumladan, infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani, xizmat ko'rsatish sifati pastligi, marketing va reklama yetishmovchiligi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, tarixiy obyektlarni restavratsiya qilish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va turistik xizmatlar sifatini oshirish muhim hisoblanadi.

Kelgusida abadiy turizmni rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro imijini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu sohada davlat va xususiy sektor hamkorligida keng ko'lamli ishlar olib borilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy merosvazirligi ma'lumotlari.

Joriy, 2024 yilda butun dunyoda turizm turlari bo'yicha mashhurlikka erishib kelayotgan hamda bizga dunyoni qanday ko'rishimizni anglatib turadigan sayohat tendensiyalari quyidagicha guruhlandi:

1. "Astro turizm". Albatta, astronomiya sivilizatsiya paydo bo'lganidan beri mavjud bo'lgan tadqiqot sohasi bo'lib, yulduzlarga qarash uzoq vaqtdan beri qalbni tinchlantiradigan hayrat manbai bo'lib kelgan. Bugungi kunda jamiyat tobora kengayib borayotgan virtual olamga qanchalik chuqurroq kirib borsa, biz haqiqiy koinotdagi dunyoqarashimizni kengaytirish zaruratini shunchalik ko'p his qilamiz. Astro turizm yoki yulduzli cho'milish-bu astronomic hodisalarni ko'rish maqsadidasayohat qilish - har qanday ifloslanish, olomon va tirbandli kdanmahrum bo'lgan yerlarga g'oyib bo'lish, bu yerda biz faqatyuqoridagi osmonga e'tibor qaratishimiz mumkin bo'lgan turizmturi hisoblanadi.

2. "Poyezd stansiyalarining yangi ovqatlanish maskanlarigaaylanishi" - bu trend o'z nomi bilan albatta ma'lumki, avvallaripoyezd stansiyalarida yo'lovchilar ka mroq o'z reyslarini kutibturish uchun imkon qadar taxminan 5 daqiqa qolganida yetibkelis har edilar, aksariyat bugungi dunyo sayohatchilari hattopoyezd stansiyalaridagi vaqtlarini ham barqaror tarzda tajribagaalmashishni yoqtirishmoqda va albatta bugungi kunda poye zdstansiyalarida ham ovqatlanish, savdo, turli xizmat ko'rsatishshoxobchalari xizmatlar to' plamlari o'z o'rnini egallamoqda.

3. "AI (suhbatdosh chatbot) siz bilan birga". Haqiqatda bunday sayohat albatta hamma uchun qiziqarli bo'lishi shubhasiz. Bizga ma'lumki, 2023-yilda sun'iy intellekt sayohatchilarga sayohatlarni rejalashtirishiga yordamchi bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda esa har bir sayohatchiga hamrohlik qilishi kutilmoqda.

4. "Yovvoyi ziyofat". Yovvoyi ziyofat tabiiy muhitda gipur-mahalliy va yem-xashakdan tayyorlangan ingrediyentlarni birlashtirgan holda chiroyli tarzda tayyorlangan oshpazlik tajribalari tendensiyasini tasvirlaydi. Misol uchun, Shvetsiyada siz sayohatchilar o'z qo'llari bilan ochiq restoranlarda ovqatlarni o'z qo'llaringiz bilan tayyorlab dasturxonga torta olasiz. Ajablanarlisi shundaki, u yerda ovqatga tayyor mahsulot holatiga kelmagan yovvoyi o'tlar, barglari qalin sabzavotlarni o'zingiz kerakli miqdorda olib tozalash jarayonini ham amalga oshirasiz. Sayohatchilar pishiradigan barcha ovqatlar bosh oshpaz ko'rsatmasi asosida tayyorlanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekiston sharoitida turizm sohasini rivojlantirishda mamlakatimizning turizm sohasidagi ulkan salohiyatidan samarali foydalanish va turizm sohasining milliy iqtisodiyotda maqomini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda soha rivojlanishi doirasida professor olimlar, ilmiy izlanuvchilar tomonidan bir qancha ilmiy ishlar, tadqiqotlar olib borilmoqda. O'ylaymizki, turizm sohasi bugungi kun nazari bilan qaraganda kelajagi porloq sohalardan biriga aylanmoqda. Kelgusida yurtimizda sohani yanada rivoji va tarmoqda ish bilan band bo'lganlar sohaning ortishiga guvohi bo'lamiz. Abadiy turizm O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosini saqlash va jahon miqyosida targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi. Bu sohani rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yangi ish o'rinlari yaratish va turizm sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash imkoniyati mavjud. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, infratuzilmani yaxshilash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali abadiy turizmni barqaror rivojlantirish mumkin. Kelgusida bu yo'nalishga doimiy e'tibor qaratish, strategik rejalashtirish va sarmoya kiritish O'zbekistonning turizm salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Abadiy turizm O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosini saqlash va jahon miqyosida targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi. Bu sohani rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yangi ish o'rinlari yaratish va turizm sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash imkoniyati mavjud. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, infratuzilmani yaxshilash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali abadiy turizmni barqaror rivojlantirish mumkin. Kelgusida bu yo'nalishga doimiy e'tibor qaratish, strategik rejalashtirish va sarmoya kiritish O'zbekistonning turizm salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 y. PF-158-son
2. <<<O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni
3. To'xlijev I. (2021) Markaziy Osiyodagi turizmning tarixiy ildizlari O'zbekiston milliy
4. axborot agentligi Uz A27.08.2021 y.
5. Eshtaev A. (2023) O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–3080-sonli qarori. – 2017 yil 2 dekabr.
8. Jo'raev M., Axmedov R. Turizm asoslari. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.
9. Xaydarov A. Madaniy meros va abadiy turizm: muammolar va istiqbollar. – “Turizmni rivojlantirish” ilmiy-amaliy jurnal, 2023, №2.
10. UNESCO rasmiy sayti – www.unesco.org (O'zbekistonning tarixiy obidalari ro'yxati bo'yicha ma'lumotlar).
11. Zokirov B., Xamidov S. Turizm geografiyasi va rejalashtirish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2020.
12. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy veb-sayti – www.uzbektourism.uz (statistik va dolzarb ma'lumotlar).